



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I

20.01.2026

5-um-son

Hay‘at qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Navoiy viloyat Adliya boshqarmasining 2026-yil 12-yanvardagi 1/26-son Hay‘at majlisi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Navoiy viloyat adliya boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. Hay‘at qaroriga asosan adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlarining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejalari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.
2. Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho‘basi (Sh.Abduraxmonov) Hay‘at qarori bilan tasdiqlangan ish rejani boshqarma va uning tarkibiy tuzilmalari mas‘ul xodimlariga ijro uchun yuborsin.
3. Boshqarma va uning tarkibiy tuzilmalari mas‘ul xodimlari Hay‘at qarori bilan tasdiqlangan ish rejada belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlasin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan muddatlarda axborot taqdim etib borsin.
4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: Navoiy viloyat adliya boshqarmasi Hay‘atining 2026-yil 12-yanvardagi 1/26-son qarori.

Boshqarma boshlig‘i



U.ABDULLAYEV



NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI HAY'ATI MAJLISINING BAYONNOMASI

2026-yil 12-yanvar

1/26-son

Navoiy shahri

Raislik qildi:

U.Abdullayev - boshqarma boshlig'i

Hay'at a'zolari:

Z.Farmanov, D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov,
U.Xatamov, F.Alxamov A.Raxmonberdiyev.

Qatnashdilar:

Adliya boshqarmasining sho'ba boshliqlari va mas'ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari va xodimlari, tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari boshliqlari va xodimlari, davlat xizmatlari markazlari direktorlari va xodimlari, FXDY mudir(a)lari va xodimlari.

Hay'at kotibi:

M.Raxmonov.

K u n t a r t i b i:

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida.

(Z.Farmanov, D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov, U.Xatamov, F.Alxamov A.Raxmonberdiyev)

Majlisning borishi:

Kun tartibidagi masala hay'at maslisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bunga ko'ra, Navoiy viloyat adliya boshqarmasining hamda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan

vazifalarni muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy viloyat adliya boshqarmasi hay'ati

Q A R O R Q I L A D I:

1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq, tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari va Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi boshlig'i zimmlariga yuklansin.

**Komissiya raisi
Boshqarma boshlig'i**



U. Abdullayev

Kelishildi:

Sho'ba boshlig'i



Sh. Abduraxmonov

**Boshqarma boshlig'i
o'rinbosari**



D. Xusanov

**Boshqarma boshlig'i
birinchi o'rinbosari**



Z. Farmanov

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Navoiy viloyat adliya boshqarmasi va uning tizimidagi idoralar tomonidan 2025-yil yakuni va 2026-yil 1-choragi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	yanvar-fevral, aprel-may	Sh.Abduraxmonov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1
2.	Navoiy viloyat adliya boshqarmasiga 2025-yil yakuni va 2026-yil 1-choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni umumlashtirish va sohalar kesimida tahlil qilish.	yanvar-fevral, aprel-may	Sh.Abduraxmonov, boshqarmaning tegishli tarkibiy bo'limlari	O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-son Qonuniga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni har chorakda umumlashtirish va tahlil qilish vazifasi belgilangan.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qonuniy ko'rib chiqilishini ta'minlash hamda qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
3.	Boshqarma tasarrufida xizmat avtotransport vositalaridan maqsadli foydalanish (<i>masofa bosish limitlariga amal qilmaslik, tezlikni oshirish hamda dam olish kunlari harakatlanish holatlari</i>) yuzasidan GPS tizimi orqali o'rganish o'tkazish. Natijasi bo'yicha ma'lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga axborot berish.	mart	A.Kobilov	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi "Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 258-sonli qarorida xizmat avtotransport vositalarining yo'l bosish limiti va ulardan foydalanish me'yorlari belgilangan.	Xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish jarayonida amaldagi yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini hamda xizmatdan tashqari foydalanish holatlarini bartaraf etishni ta'minlash hamda transport vositasini qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha masofa bosilishi, ortiqcha yoqilg'i sarflashni oldini olish.	3
4.	Boshqarma tasarrufidagi binolarga o'rnatilgan quyosh panellarining ishchi holatini monitoring qilish, shuningdek, binolardagi bo'sh joylarni aniqlab qo'shimcha quyosh panellarini o'rnatish yuzasidan boshqarma rahbariyatiga taklif kiritish.	mart	A.Kobilov	Adliya vaziri tomonidan 2025-yil 18-sentyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son Farmoni ijrosini ta'minlashga qaratilgan Adliya vazirligining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlariga erishish belgilangan.	Tasarrufdagi binolarda zarur energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish orqali belgilangan ko'rsatkichlar qayd etilishi ta'minlash.	2.
5.	Boshqarma tasarrufidagi binolardagi xizmat ko'rsatish maydonlaridan kelib chiqqan holda quyi tuzilmalarda faoliyat ko'rsatayotgan xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni shtat birliklarini qayta ko'rib chiqish hamda natijasi bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish.	mart	G'.Mustofoyev	O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining qo'shma qarorida (13.08.2014-yilda ro'yxatdan o'tgan,	Boshqarma tarkibidagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni shtat birliklarini belgilangan me'yorlarga mosligini qayta ko'rib chiqish hamda quyi tuzilmalardagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini xizmat ko'rsatish	

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				ro'yxat raqami 2609) xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlarining me'yorlari belgilangan.	maydonlari bo'yicha muvofiqlashtirish	
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
6. (14)	Navoiy viloyat Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – boshqarma) faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: boshqarma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; boshqarmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; boshqarma faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra, sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash; o'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. Natijasi bo'yicha boshqarma funksiyalarini GPR usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish	yanvar-fevral	J.Ravshanov, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, Sh.Elmurodov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ushbu sohada so'nggi uch yil mobaynida kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil etilmaganligi sababli vazirlikka yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan. Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.	Investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash, vazifa va funksiyalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning belgilangan talablarga mosligini nazorat qilish orqali vazirlikning samarali va sifatli faoliyatini yo'lga qo'yish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Adliya vazirligiga kiritish. Shuningdek, tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalari tayyorlab berish.					
7. (15)	Fuqarolarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini to'liq ta'minlash maqsadida "Mulk huquqlari kafolatlari" huquqiy oyligini o'tkazish. Huquqiy oylik natijasiga ko'ra Adliya vazirligiga axborot kiritish.	yanvar-fevral	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Tahlil natijasiga ko'ra, hozirda respublika bo'yicha 18 mingga yaqin ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsada, unga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Oqibatda, ushbu ko'chmas mulklar egalariga soliq qonunchiligi bo'yicha uch karra soliq stavkasi qo'llanilmoqda.	Respublikadagi 18 mingga yaqin ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga ko'maklashish orqali fuqarolarning mulk huquqlarini to'liq ta'minlash hamda uch karra soliq to'lanishini oldini olish	4
8.	2025-yil davomida adliya boshqarmasi Inson huquqlarini himoya qilish sho'basiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish. Tahlil yakunlari bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish	fevral	M.Umerzakov	Adliya boshqarmasiga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushadigan murojaatlar soni oshib bormoqda. Mas'ul tashkilotlar tomonidan bir turdagi qonunbuzilish holatlariga takror yo'l qo'yilmoqda.	Amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish va qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash.	4
9. (16)	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Navoiy viloyat bo'limi (keyingi o'rinlarda – bo'lim) faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish,	fevral-mart	J.Ravshanov, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, Sh.Elmurodov	Ushbu sohada so'nggi uch yil mobaynida kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil	Qishloq xo'jaligi va agrosanoat sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash, inspeksiya nazorat tadbirlarini qonuniylik asosida	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	bunda: boshqarma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; boshqarmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; boshqarma faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra, sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash. O'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish.			etilmaganligi sababli inspeksiya xizmatlari sifati va agrosanoat loyihalarining samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan. Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.	amalga oshirish hamda ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish jarayonlarining belgilangan standartlarga mosligini nazorat qilish orqali xavfsiz, samarali va sifatli agrosanoat faoliyatini yo'lga qo'yish.	
10. (18)	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi Navoiy viloyat boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – boshqarma) faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: Boshqarma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; Boshqarmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; Boshqarma faoliyatini	mart-aprel	J.Ravshanov M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, Sh.Elmuurodov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ushbu sohada so'nggi uch yil mobaynida kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil etilmaganligi sababli qo'mitaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan. Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini	Avtomobil yo'llari sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash, vazifa va funksiyalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning belgilangan talablarga mosligini nazorat qilish orqali qo'mitaning samarali va sifatli faoliyatini yo'lga qo'yish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash; o'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. Natijasi bo'yicha boshqarma funksiyalarini GPR usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Adliya vazirligiga kiritish. Shuningdek, tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalari tayyorlab berish			ko'rsatadi.		
11. (19)	Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda oilaviy zo'ravonlik holatlarini oldini olish maqsadida "Xotin-qizlar huquqlari kafolatlari" huquqiy aksiyasini o'tkazish. Aksiya natijasiga ko'ra, Adliya vazirligiga axborot kiritish.	mart-aprel	M. Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	So'nggi paytlarda oilada ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik holatlari ko'payib bormoqda. Shu bois, ushbu sohada fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish hamda zo'ravonlik holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarurati yuzaga kelmoqda.	Xotin-qizlar huquqlari ta'minlanib, fuqarolar o'rtasida oilaviy zo'ravonlik holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	5

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
12. (22)	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi Navoiy viloyat hududiy bo'limlari (keyingi o'rinlarda – bo'limlar) faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: bo'limlar faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; inspeksiyaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; bo'limlar faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha normativ - huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. O'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish.	aprel- may	J.Ravshanov, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, Sh.Elmurodov	Ushbu sohada so'nggi uch yil mobaynida inspeksiya faoliyati yuzasidan kompleks o'rganish va monitoring ishlari amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlarining muvofiqlashtirilmaganligi va huquqni qo'llash amaliyotining tizimli tahlil qilinmaganligi tufayli inspeksiya xizmatlari sifatini baholash imkoniyati cheklangan. Shu bilan birga, avtotransport harakati va yuk tashish jarayonlarida yetarli nazorat o'rnatilmagan.	Avtotransport harakati va yuk tashish sohasida belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash, nazorat tadbirlarini qonuniylik asosida amalga oshirish hamda transport vositalari texnik holatining belgilangan standartlarga mosligini ta'minlash orqali xavfsiz va sifatli transport xizmatlarini yo'lga qo'yish.	4
13.	Navoiy viloyat Soliq boshqarmasi uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida shuningdek, ularning tarkibiy muassasalarida: “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonun ijrosini o'rganish, bunda jismoniy va	may	M.Umerzakov tuman (shahar) adliya bo'limlari	Fuqarolar tomonidan Adliya organlariga soliq sohasiga oid masalalari yuzasidan ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Bu esa, ushbu sohadagi yo'l qo'yilayotgan tizimli kamchilik va muammoli holatlarni aniqlash hamda	Amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish va qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash.	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda ushbu Qonun talablariga rioya qilinganligini tahlil qilish; Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralar ko'rish hamda tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash.			ularni o'z vaqtida bartaraf etishni talab etadi.		
14. (25)	Yoshlar, jumladan uyushmagan yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va buzilgan huquqlarini tiklash, bolalar zo'ravonligini oldini olish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishini yanada kuchaytirish maqsadida "Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish" huquqiy aksiyasini o'tkazish. Aksiya natijasiga ko'ra Adliya vazirligiga axborot kiritish.	may-iyun	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari, shu jumladan jinsiy zo'ravonlik holatlari soni ko'payib bormoqda. Shu bois, ta'lim muassasalarida va mahallalarda bolalar, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida keng qamrovli tushuntirish hamda suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiq.	Bolalar va yoshlar huquqlari davlat himoyasida ekanligini singdirish, bolalar va yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini o'rganish, tahlil qilish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash, bolalar zo'ravonligini oldini olish, nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini ta'minlash. Shuningdek, bolalar va yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish–vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda bolalar va yoshlarning qiynab kelayotgan huquqiy muammolarga yechim topish.	5
15.	Dafn etish ishlarini tashkil etish va hisobini yuritish holatini tahlil qilish, tahlil natijasi yuzasidan ma'lumotnoma hamda takliflar ishlab chiqib rahbariyatga axborot berish.	iyun	J.Ravshanov U.Xatamov J.Muhammadiyev tuman (shahar) adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-noyabrdagi 735-sonli qarorining ijrosi tahlil qilish. Boshqarma tomonidan ushbu	Dafn etish ishlarini tashkil etish holatini o'rganish.	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				sohada o'rganish o'tkazilmagan.		
III. HUQUQIY XIZMATLAR VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA						
16.	Quyidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariyslarning faoliyatida notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish: Qiziltepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh.Mavlonova; Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius F.Ro'ziyev; Xatirchi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Q.Ruziqulov; Zarafshon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius J.Narbayev; Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Fazliddinov; Zarafshon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius B.Bozorov. Tekshirish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	yanvar fevral mart aprel may iyun	F.Alxamov	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan "Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 12-bandiga asosan notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Mazkur xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyati oxirgi uch yilda tekshirilmagan.	Notariuslar tomonidan amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning qonuniyligini o'rganish. O'rganish natijalari yuzasidan belgilangan ta'sir choralari ko'rish va aholiga sifatli notarial xizmatlarning ko'rsatilishini ta'minlash.	3
17.	Navoiy shahridagi "Nurmatova Halima", "SHERDOR-NAVOIY",	fevral-may	F.Alxamov	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarori bilan	Aholiga sifatli huquqiy xizmat ko'rsatilishini	2

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	"DJUMAYEVA MATLUBA", Nurota tumanidagi "GULI RANO NUR" advokatlik byurolari hamda Karmana tumanidagi "LEX ASH" advokatlik firmasi va "ADVOKAT SH-FOZILOVA" advokatlik byurosi, Navoiy sharidagi "LION LAW PROTECTION", Qiziltepa tumanidagi "NAVOIY ADOLAT MEZONI" advokatlik byurolari tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ahvolini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.			tasdiqlangan Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomning 40-bandida adliya organi advokat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi belgilangan. Mazkur advokatlik tuzilmalari faoliyati oxirgi uch yilda o'rganilmagan.	ta'minlash.	
18.	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan diniy tashkilotlarining 2025-yilgi faoliyati yuzasidan hisobotlarini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha ma'lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga axborot berish.	fevral-mart	M.Mamatqulov	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomga muvofiq nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati haqidagi hisobotlarni qabul qilish va tahlil qilish adliya organlarining vazifalaridan biri etib belgilangan.	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	1
19. (31)	Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari va Oliy malaka	mart	F.Alxamov	So'nggi paytlarda malaka komissiyalari faoliyati yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslar,	Malaka komissiyalar faoliyatidagi tizimli muammolarni aniqlanadi	5

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	komissiyalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartiblarini tahlil qilish. Natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga taqdim etish.			shuningdek advokatlar tomonidan ham e'tirozlar ko'payib bormoqda.	va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.	
20.	Navoiy viloyati futbol assotsiatsiyasi, O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining qo'l jangi federatsiyasi Navoiy viloyat bo'limi faoliyatini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	mart-aprel	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi nizamda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o'rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o'rganish o'tkazilmagan.	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o'rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	4
21	Advokatlar tomonidan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish uchun kelib tushgan so'rovlarni asossiz ravishda rad etish holatlari tahlil qilish. Natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash.	mart-iyun	F.Alxamov	So'ngi paytlarda advokatlar tomonidan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish uchun kelib tushgan so'rovlarni rad qilish holatlari uchramoqda.	Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sifati va tezkorligini oshirishga erishish.	5
22	2024-2025-yillar davomida faoliyatida rejali tekshirish o'tkazilgan notariuslar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish. Natijasi yuzasidan taklif tayyorlash.	May	F.Alxamov	Notariuslar tomonidan bir turdagi kamchiliklarni takrorlanish holatlari uchramoqda.	Notariuslar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etiladi.	5

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
23.	O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy viloyat Birlashgan qo'mitasi faoliyatini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	may	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi nizamda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o'rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilot faoliyatida oxirgi uch yilda o'rganish o'tkazilmagan.	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o'rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	5
24.	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan 2025-yilda mahalliy grant mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanilishi bo'yicha monitoring o'tkazish. Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash	may-iyun	M.Mamatqulov	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizamning 12-bandiga muvofiq nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring olib borish adliya organlarining vazifalaridan biri etib belgilangan	Grant loyihalarining moliyaviy-tahliliy hisobotlarini to'liq monitoring qilish natijasida ajratilgan mablag'larning sarflanganlik holatini aniqlash.	
25.	Nurota tuman "Chil-ustun" va "Buduq" jom'e masjidi faoliyatini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	iyun	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi nizamda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar	Mazkur diniy tashkilotlarning faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o'rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, diniy	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				faoliyatini o'rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o'rganish o'tkazilmagan.	tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	
IV. DAVLAT XIZMATLARI VA FHDY SOHASIDA						
26.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan haydovchilik guvohnomalarini rasmiylashtirish holatini tahlil qilish, tahlil natijasi yuzasidan ma'lumotnoma hamda takliflar ishlab chiqib rahbariyatga axborot berish.	yanvar-fevral	U.Xatamov	Boshqarma tomonidan ushbu sohada o'rganish o'tkazilmagan.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni qonuniyligi ta'minlanadi hamda kelgusida bir xil amaliyot yo'lga qo'yiladi.	4
27.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ERI kalitlarini rasmiylashtirish holatini tahlil qilish, tahlil natijasi yuzasidan ma'lumotnoma hamda takliflar ishlab chiqib rahbariyatga axborot berish.	fevral-mart	U.Xatamov	Mazkur sohada 2025-yil davomida fuqarolar tomonidan yo'llanayotgan murojaatlarning ko'payganligi hamda HMQOlar tomonidan so'rovlarning oshganligi.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni qonuniyligi ta'minlanadi hamda kelgusida bir xil amaliyot yo'lga qo'yiladi.	4
28.	Davlat xizmtlari markazlarida murakkab, o'rta va oson xizmat ko'rsatish turlari joriy qilinganligi natijasini, shuningdek, markazlarda soat 8-00 dan 9-00 ga qadar vaqt oralig'ida xizmat ko'rsatish holatlarini tahlil qilish. Tahlil natijasi yuzasidan takliflar ishlab chiqish va rahbariyatga axborot berish.	yanvar-fevral	U.Xatamov	Toifalarga bo'linganligi sababli navbatlarni ko'payishi hamda o'rtacha xizmat kutish vaqtini oshib ketishi.	Davlat xizmatlar markazlari tomonidan fuqarolarga xizmat ko'rsatish hamda kutish vaqtini qisqartirish.	4
29.	Zarafshon shahar adliya bo'limi FHDY;	aprel,	U.Xatamov	Mazkur bo'limlarda 2024-2025-yillarda o'rganish o'tkazilmagan	FHDY bo'limlari tomonidan ko'rsatilayotgan	

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	Uchquduq tuman adliya bo'limi FHDY; Tomdi tuman adliya bo'limi FHDY bo'limlarining 2024-2025-yillar va 2026-yilning o'tgan davridagi faoliyatini o'rganish. O'rganish natijalari yuzasidan ma'lumotnoma tayyorlab rahbariyatga axborot berish.	may, iyun			xizmatlarni qonuniyligi tahlil qilinib, ish faoliyatlari yuzasidan bir xil amaliyot yo'lga qo'yiladi.	
30.	Navoiy viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatilishi ahvolini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	mart-aprel	J.Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur sohada oxirgi ikki yilda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.	Vakolatli organ tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini sifatli ko'rsatilishini ta'minlash	4
31.	Davlat xizmatlari markazlari xodimlarining jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan qonun hujjatlaridan xabardorligini darajasini tahlil qilish hamda Markaz xodimlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatilishi ahvolini o'rganish.	mart-aprel	J.Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bugungi kunda aholi va tadbirkorlik subyektlariga jami 1040 ta davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Shundan 510 ta davlat xizmati Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatilmoqda. Shunga ko'ra, Davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimlarining har bir davlat xizmatini ko'rsatish tartibidan to'liq xabardorligini oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini sifatli ko'rsatilishini ta'minlash hamda Markaz xodimlarining bilim darajasini oshirish.	5
32.	Eng ko'p qonun buzilishiga yo'l qo'yiladigan 10 ta davlat xizmatlarini	may-iyun	J.Muhammadiyev, tuman (shahar)	2025-yil davomida vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlarini	Vakolatli organlar tomonidan jismoniy va yuridik	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	tahlil qilish orqali qonun buzilishiga yo'l qo'yilishi sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash.		adliya bo'limlari	ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan jami 12044 ta qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Mazkur qonun buzilish holatlari asosan davlat xizmati ko'rsatishni asossiz rad etish hamda muddat buzilishi bilan bog'liqligi jismoniy va yuridik shaxslarning e'tirozlariga sabab bo'lmoqda	shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatilishida yo'l qo'yilayotgan qonun buzilish holatlarini kamaytirish.	
33.	Navoiy viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo'limlari tomonidan: ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatilishi ahvolini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli ta'sir choralar qo'llash.	may-iyun	J.Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur sohada oxirgi ikki yilda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.	Vakolatli organ tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini sifatli ko'rsatilishini ta'minlash	3
V.YURIDIK XIZMAT VA INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
34.	Yuridik va jismoniy shaxslarning o'z milliy brendlariga ega bo'lishlari uchun ularga yaqindan yordam berish va ko'maklashish. Bajarilgan ishlar yuzasidan har oy yakunida rahbariyatga axborot berish.	yanvar-iyun	Sh.Elmuurodov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bugungi kunda, intellektual mulk, brend nima ekanligi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisini yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qayerdan va qanday tartibda olinishi to'g'risida aholimiz yetarlicha bilim va malakaga ega emas.	Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, o'z milliy brendlari va logotiplari tushirilgan holda ishlab chiqarilishiga erishish.	4
35.	Ta'lim muassasalarida mualliflik huquqi sohasi bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	mart	Sh.Elmuurodov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Aholi orasida mualliflik huquqini keng targ'ib qilish hamda mualliflik huquqidan noqonuniy foydalanishni	Aholining intellektual mulk huquqlari yuzasidan huquqiy ongini va huquqiy	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	Bajarilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot berish.			oldini olish.	madaniyatini yuksaltirish.	
36.	Faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) past bo'lgan yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini aniqlash hamda mazkur markaz xodimlariga manzilli o'quv mashg'ulotlari o'tkazish.	mart	A.Saidov	Faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) past bo'lgan yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining yuqori faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlariga erishishini ta'minlash.	Faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) past bo'lgan yuridik xizmat ko'rsatish markazlari xodimlariga manzilli o'quv mashg'ulotlari o'tkazish orqali yuqori faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlariga erishish.	
37.	Kontrafakt mahsulotlarini realizatsiya qilish hamda sotish ortidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarini yoritilgan ijtimoiy roliklar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish.	aprel	Sh.Elmuurodov,	Bugungi kunda kontrafakt mahsulotlari ko'plab iste'molchilarning hayotiga salbiy ta'sir qilmoqda.	Iste'molchilarni kontrafakt mahsulotlarining salbiy ta'siri haqida xabardor qilish.	5
38.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari yuzasidan seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.	aprel	A.Saidov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mehnat kodeksi normalarini qo'llash bo'yicha yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish yuzasidan yagona amaliyotni shakllantirish.	Tashkilotlar xodimlarining bilim saviyasini oshirish orqali hujjatlarni qonuniy va sifatli qabul qilinishiga erishish.	4
39. (44)	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat tashkilotlarining hujjatlarini "E-huquqshunos" elektron tizimida "paket" usuli orqali qabul qilish tartibini joriy qilish.	may	A.Saidov	Tahlil natijasiga ko'ra, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar tomonidan ichki hujjatlarini (ariza, bildirgi, bayonnoma va boshqalar) yuritish raqamlashtirilmagan.	YXKMlar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat tashkilotlarining hujjatlarni yuritish jarayonini to'liq raqamlashtirish.	5
40. (45)	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari xizmat ko'rsatayotgan	may	A.Saidov	Tahlil natijasiga ko'ra, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar tomonidan	YXKMlar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat	4

